BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARI KREATIV FIKRLASH QOBILYATLARINI INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA SHAKLLANTIRISH

Nuriddinova Azizaxon Bahromjon qizi, Namangan davlat universiteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini innovatsion yondashuvlar asosida kreativ fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish,ta’lim jarayoniga o‘quvchilarni yangiliklar orqali qiziqtirish, ularning dunyoqarashlarini rang-barangligini boyitish hamda ularda yaratuvchanlik, ijodkorlik, ixtirolar qilishga ishtiyoqini oshirish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: dunyoqarashning rang-barangligi, innovatsion yondashuvlar, kreativlik, kreativ fikrlash, yaratuvchanlik, ijodkorlik, ishtiyoq.

ФОРМИРОВАНИЕ У МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ НАВЫКОВ КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННЫХ ПОДХОДОВ

Аннотация. В данной статье рассматривается формирование способностей творческого мышления учащихся начальных классов на основе новаторских подходов, интерес учащихся к образовательному процессу через новости, обогащение разнообразия их мировоззрения, повышение их увлеченности творчеством, творчеством, изобретательством.

Ключевые слова: многообразие мировоззрения, инновационные подходы, креативность, творческое мышление, креативность, креативность, увлеченность.

FORMATION OF CREATIVE THINKING SKILLS IN YOUNGER SCHOOLCHILDREN BASED ON INNOVATIVE APPROACHES

Abstract. This article discusses the formation of creative thinking abilities of elementary school students based on innovative approaches, interest of students in the educational process through news, enriching the diversity of their worldviews, and increasing their enthusiasm for creativity, creativity, and inventions.

Keywords: diversity of outlook, innovative approaches, creativity, creative thinking, creativity, creativity, passion.

Kirish. YUNESKO tashkiloti pedagogik texnologiyani ta’lim shakllarini maqbullashtirish uchun inson va texnik resurslarni hamda ularning o‘zaro ta’sirini e’tiborga olgan holda, o‘qitish va bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini yaratish,

qo‘llash vaaniqlashning tizimiy uslubi ekanligini be’jiz ta’kidlamagan. Bundan kelib chiqqan holda pedagogik texnologiyaning tub mohiyati o‘quv jarayoniga tizimli yondashishdan iborat ekanligi bilinadi. Ma’lum bo‘ladiki, pedagogik texnologiyaning eng tarixiy manba bo‘lib xizmat qiladigan asosiy mezon bu - nuqsonsiz mexnat kontseptsiyasi ekan. Nuqsonsiz mexnatni ta’minlovchi shartlardan biri mehnat qilayotgan subektning psixologik shaxsiy xarakteristikalarini hisobga olishdir. Samarali pedagogik mehnatning eng muhim omillari sifatida - izlanuvchining kasbga qiziqishi; - kasbiy tayyorgarlik sifati; o‘z mehnatini muntazam nazorat qilib borish kabi holatlarni olishimiz mumkin. Samaradorli pedagogik mehnat - zamonaviy pedagogik texnologiyalar aniq sharoitlarda mavjud bo‘ladi va ma’lum o‘qitish standartlariga erishishini kafolatlaydi, natija bo‘yicha samarador, xarajatlar bo‘yicha optimal bo‘ladi. Ta’lim jarayonida innovatsiyalarni qo‘llashda eng yuqori natijani olish vazifasi tushiniladi. Innovatsiyalarning har qanday yangilikdan farqi shundaki, u boshqarish va nazorat qilishga imkon beradigan o‘zgaruvchan mexanizmga ega bo‘lishi zarur. Ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvning mohiyatini ifodalovchi faoliyat to‘g‘risida so‘z yuritiladi. Ilmiy adabiyotlarda boshlang‘ich sinflarda innovatsion yondashuvlar alohida e’tibor qaratiladi. Darhaqiqat, yangilik – vosita sanalib, u aksariyat holatlarda yangi metod, metodika, texnologiyalarni keltirib chiqaradi.

Ma’lumki, ta’lim tizimidagi pedagogik jarayonning mohiyati – o‘qituvchi hamda o‘quvchining o‘zaro munosabatdagi faoliyati nazarda tutiladi, ushbu jarayonda pedagog o‘quvchiga yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etishga yordam beradi. Pedagogik yordamning asosiy mohiyati pedagogik jarayonning tavsifi, uning aniq maqsadga yo‘naltirilganligi, shu bilan birga, shaxsni shakllantirish va tarbiyalash borasida hal etiladigan vazifalar bilan ifodalandi. Pedagog axborotlarni e’lon qilish, krsatish, eslatish, tushuncha yoki maslahat berish, yo‘naltirish, haqqoniylashtirish, kengashish, bartaraf etish, hamdardlik qilish, ilhomlantirish, qiziqish va hurmatni izhor qilish, talabchanlikni qo‘llab-quvvatlash kabi ko‘rinishlarda yordam beradi. O‘qitish jarayoniga faoliyat nuqtai nazaridan yondashish kontseptsiyasigaasoslanib, uni tashkil etish quyidagi mantiqiy ketmaketligini asoslash mumkin: dastlab o‘quv materiali mazmunining tavsifi, uni o‘rganishdan ko‘zlangan maqsad (o‘zlashtirish darajalari), shuningdek, pedagogik vazifaning qo‘yilish shartlari tahlil etiladi. So‘ngra, o‘qitishning mos ravishdagi metodlari hamda o‘quvchilarning bilish faoliyatini boshqarish tizimi ishlab chiqiladi. Shu asosda o‘qitish vositalarining ro‘yxati tuziladi. Ushbu usul bilan hosil qilingan metod va ta’lim vositalarining yaxlit tizimi tashkiliy shakllar.

Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari - majmuaviy integral (butun, uzviy bog‘liq) tizim bo‘lib, unda ta’lim maqsadlari asosida belgilangan ko‘nikma va malakalar o‘quvchilar tomonidan nazariy bilimlarni o‘zlashtirish, ularda muayyan ma’naviyaxloqiy sifatlarni tarbiyalashga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyat elementlarining ma’lum tartibga solingan to‘plami sifatidaaks etadi. Umumlashgan pedagogik texnolgiyalar ma’lum psixo-pedagogik asoslarda qurilgan «sintetik nazariya» sifatida qaraladi. Ta’lim jarayonining maqsadi DTS, o‘quv rejasi dasturi, shuningdek, darslik, qo‘llanmalarda belgilab berilgan muayyan mavzu hamda fan

(yoki kurs)ning o‘ziga xos jihatlari, mavjud pedagogik shart-sharoitlar, o‘quvchilarning yosh, psixologik xususiyatlari, ularning hayotiy ehtiyoji va qiziqishlari, ta’lim beruvchining bilim va malaka darajasi, dunyoqarashi, ijodkorligi, vaziyatni baholay hamda unga muvofiq tezkor harakat qila olish layoqati va hakozo omillarni inobatga olish asosida belgilanadi.

O‘quv jarayonining maqsadi tashhisli ravishdaaniq va ravshan belgilanmog‘i lozim. Ta’lim maqsadining bunday belgilanishi ma’lum va amal qilingan vaqtda didaktik jarayonni tashkil qilish va amalga oshirilish darajasi yuzasidan xulosa chiqarish imkoniyatini yaratadi. Ta’lim jarayonining maqsadi ijtimoiy buyurtma mazmuni hamda o‘quvchi shaxsi modellarining o‘zaro muvofiqligi asosida kechadi. Bosqichli darajada ta’lim maqsadini shakllantirish dolzarb darajadagi maqsad muayyan ta’limiy tayyorgarlik bosqichlari bo‘yicha taqsimlab chiqiladi. Ta’lim tizimining yaxlit holda kasbga yo‘naltirilganligi sababli o‘quvchi shaxsining modeli uning obyekti bo‘lib qoladi. Ta’lim jarayonida shaxsning yosh ko‘rsatgichlari tabiiy uning shakllanish bosqichlariga mos ravishda asosiy maqsaddan kelib chiqib darajalanadi. Tezkor daraja ta’lim maqsadini shakllantirish mazmuni, ta’lim jarayonini tashkil etuvchi alohida fanlarni o‘rganishdan iboratdir.

Ta’lim jarayonining mazmuni shaxsga ta’lim berish, uni tarbiyalash va rivojlantirish kabi vazifalarning ijobiy hal etilishini ta’minlashga xizmat qiladi. Ta’lim muassasalari oldida turgan vazifalarni hal etish mashg‘ulot (ta’lim jarayoni) mazmuni, ta’lim shakli, metodlari hamda vositalarining samaradorligiga bog‘liq bo‘ladi. Ta’lim shakli, metodlari va vositalari o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, ularda chuqur bilim va dunyoqarashni hosil qilishga xizmat qiladi. Innovatsion yondashuv quyidagilarga ega bo‘lishni ifodalaydi: - ijodiy faollik; - faoliyatga yangilik (o‘zgartirish) kiritishga - texnologik va metodologik jihatdan tayyorgarlik; - yangicha fikrlash; - yuksak muomala madaniyati Pedagogik innovatsiyalar tegishli sohada ijobiy o‘zgarishlarni sodir etish, sifat jihatdan yuqori natijalarga erishish maqsadida qo‘llaniladi. Bu turdagi innovatsiyalarni asoslash muayyan bosqichlarda kechadi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach Davlat ta’lim standarti hamda o’quv reja va dasturlar asosida boshlang‘ich ta’limda (1-2-sinflarga “atrofimizdagi olam”, 3-4-sinflarga “tabiatshunoslik”) darslik va o’quv qo‘llanmalar yaratildi. Ta’limdagi islohot ta’lim sifatini oshirishga qaratilganlini hisobga olgan holda yangicha turdagi darsliklarning ta’lim jarayoniga joriy qilish orqali ham amalgaoshirilmoqda. Fanlarni umumlashtirish, sifatini oshirish, o’quvchilar ongida yangicha rang-baranglikni hosil qilish maqsadida bir necha fanlar tizimi ixchamlashtirilib ixtisoslashtirildi. Jumladan kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan tabiatshunoslik turkumiga kiruvchi fanlar umumlashib “Tabiiy fanlar” turkumi joriy qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. Kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017.

2. G‘oyibnazar Ernazarov. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi Toshkent.: ILM ZIYO, 2013.

3. Nurmonov A., Sobirov A., Yusupova Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T.: Ilm-ziyo, 2010.

4. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X. va boshqalar. Ona tili. Ona tili o‘qitish metodikasi. – T.: Noshir, 2009.

5. Safarova R., Inoyatova M. Alifbe. – Toshkent: Kolorpak, 2021.

6. Suyarov K.T., Tillayeva Z.Y. va boshqalar. Tabiiy fanlar. 2-sinflar uchun darslik. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2021.

7. Nuriddinova M.I. Tabiatshunoslikni o’qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. – T., 2005.

8. Bahramov A. Tabiatshunoslik. 3-sinf o‘quvchilari uchun darslik. – T.: Cho‘lpon, 2014.

9. Bahramov A. Tabiatshunoslik. 4-sinf o‘quvchilari uchun darslik. – T.: Sharq, 2014.